ISSN: 3060-4613

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

O'zbekiston Milliy Pedagogika Universiteti




13.00.00 Pedagogika fanlari
13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
13.00.03 Maxsus pedagogika
13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohalari va bosqichlari bo'yicha)
13.00.07 Ta'limda menejment
13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
07.00.00 Tarix fanlari
19.00.00 Psixologiya fanlari
01.00.00 Fizika-matematika fanlari
02.00.00 Kimyo fanlari
03.00.00 Biologiya fanlari
09.00.00 Falsafa fanlari
10.00.00 Filologiya fanlari
11.00.00 Geografiya fanlari

№7(1)
2026

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA’LIMI

Elektron nashr. 80 sahifa,
1-iyul, 2026-yil.

**BOSH MUHARRIR:**
**Karimova E’zoza Gapirjanovna –** O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vaziri

**BOSH MUHARRIR O‘RINBOSARI:**
**Ibragimova Gulsanam Ne’matovna** – Pedagogika fanlari doktori, professor

*TAHRIRIYAT KENGASHI A’ZOLARI*
***Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik***
***Shoumarov G‘.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik***
***Qirg‘izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor***
***Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Ma’murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Qo‘ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor***
***Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor***
***Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)***
***Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)***
***Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog‘iston)***
***Rejep O‘zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)***
***Wookyu Cha – Koreya milliy ta’lim universiteti rektori (Koreya)***
***Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)***
*Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent*
***Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor***
***Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor***
*Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor*
***Doniyorov S. M. – “Yangi O‘zbekiston” va “Pravda Vostoka” gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O‘zbekiston Respublikasida xizmat ko‘rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***G‘afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)***
***Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent***
***Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti***
***Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor***
***Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent***
***Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent***
***Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo‘yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent***
***Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori***
***Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent***
***Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta’limi boshqarmasi boshlig‘ining birinchi o‘rinbosari***
***Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo‘limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)***
***Vaxobov Anvar Abdusattor o‘g‘li – Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent***

Muassis: “Tadbirkor va ishbilarmon” MChJ
Hamkorlarimiz: O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi, O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti

**EDITOR-IN-CHIEF:**
**Karimova E'zoza Gapirzhanovna –** Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

**DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:**
**Ibragimova Gulsanam Ne'matovna** – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

***EDITORIAL BOARD MEMBERS:***
***Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician***
***Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician***
***Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor***
***Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Shermuhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor***
***Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor***
***Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)***
***Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)***
***Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)***
***Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)***
***Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)***
***Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)***
**Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor**
***Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor***
***Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor***
***Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor***
***Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers "Yangi O'zbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor***
***Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)***
***Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor***
***Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor***
***Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service***
***Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor***
***Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)***
***Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor***
***Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor***
***Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics***
***Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor***
***Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region***
***Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences***
***Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor***

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:
Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:
• Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
• Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)
Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):
• Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
• Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA CONTENTS СОДЕРЖАНИЕ

# MUNDARIJA

Raqamli ta'lim muhitida o'quvchilarning milliy qadriyatlarga oid tasavvurlarini shakllantirishning pedagogik-psixologik mexanizmlari ........ 10
Davlatnazarova Ziyodabonu Muxtor qizi

Talabalarning xulqidagi deviatsiya darajasining yuqorilab ketishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar ........ 16
Ergashev Jo'rabek Xalilovich

Zo'ravonlikka uchragan bolalarni va ularning oilalarini zo'ravonlikdan himoya qilishning normativ-huquqiy va ijtimoiy-psixologik asoslari ........ 19
Ergasheva Gullolaxon Nosirjon qizi

Tinglab tushunish kompetensiyasining psixolingvistik va pedagogik asoslari ........ 24
Jonbo'tayeva Maxarramxon

O'z-o'zini rivojlantirish kompetensiyasining kasbiy kompetentlik tizimidagi o'rni ........ 27
Kutliyeva Feruzaxon Yusupovna

Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarning ijtimoiylashuvini ta'minlashga xizmat qiluvchi zamonaviy kompleksni rivojlantirish ........ 31
Yunusov Mirsaid Xudayarovich, Istamova Sevdo Ashirqul qizi

Elektr tizimlari dinamik barqarorligini STEAM va Spiral (Regressus, Progressus) metodlari asosida o'qitish ........ 35
Safarov Xoliyor Sayyid Safar o'g'li

O'quvchilarda badiiy-estetik did va dizaynerlik ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi ........ 39
Norbutayeva Dilafruz Abdurasulovna

Talabalarda ijtimoiy yetuklikni rivojlantirishning psixologik mexanizmlari va uning ta'lim sifatiga ta'siri ........ 43
Rahimova Nazokatxon Kasimdjonovna

Model for Improving Students' Professional Competencies Based on Motivational Learning Approach ...... 49
Alibekova Mahzuna

Bo'lajak tarix o'qituvchilarining tarixiy tafakkurini shakllantirishning tuzilmasi va pedagogik komponentlari... 54
Djumaniyazov Farxod Ulugbekovich

Yengil atletika bilan shug'ullanuvchi 14-16 yoshli sportchi qizlarda mashg'ulotlar davomiyligi ........ 59
Oralova Bibixol Husniddin qizi, G'ulomova Maftuna Sayfulla qizi

Boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'yinlar orqali o'rgatish ........ 64
Ruzmetova D. A.

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining axloqiy faoliyatini shakllantirishda pedagogik vositalarning imkoniyatlari ........ 68
Saydanova Dilafruz Sadirdinovna

Xorijiy tajribalar va zamonaviy yondashuvlar asosida tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirish ........ 75
Ubaydullayev Zuxriddin Botirovich

МAKTABGACHA PRE-SCHOOL ДОШКОЛЬНОЕ

# BOSHLANG'ICH TA'LIMDA INGLIZ TILINI O'YINLAR ORQALI O'RGATISH

Ruzmetova D. A.
UzDJTU (PhD) dotsenti

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang'ich ta'limda chet tilini o'qitish samaradorligini oshirish, shuningdek, o'quvchilarning ruhan tetik va jismonan sog'lom rivojlanishida hamda atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishda muhim bo'lgan ta'limiy o'yinlarning ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** rolli o'yinlar, amaliy mashg'ulotlar, muhit yaratish, imo-ishoralar, qo'shiq va she'rlar, yuz ifodalari, hidlab va ta'tib o'rganish.

**Abstract:** This article is about the importance of educational games, which are important for increasing the effectiveness of foreign language teaching in primary education, as well as for the healthy development of students mentally and physically, as well as for the formation of social relations with others.

**Key words:** role-play, hands-on activities, environment creation, gestures, songs and poems, facial expressions, smell and taste learning.

**Аннотация:** В данной статье говорится о значении обучающих игр, которые имеют важное значение для повышения эффективности обучения иностранному языку в начальной школе, а также для здорового умственного и физического развития учащихся, а также для формирования социальных отношений с другими.

**Ключевые слова:** ролевая игра, практическая деятельность, создание среды, жесты, песни и стихи, мимика, обучение запаху и вкусу.

## KIRISH

Hozirgi kunda davlat ta'lim standartlari talablarining maqsadi mamlakatda o'tkazilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlarni, xorijiy mamlakatlar ilg'or tajribasi hamda ilm-fan yutuqlari va zamonaviy kommunikativ texnologiyalarni inobatga olgan holda boshlang'ich ta'limdan yoshlarni ma'nan mukammal va intellektual rivojlangan shaxs etib tarbiyalashdir. Demak, aynan boshlang'ich ta'lim yoshida o'quvchilarning o'rgangan bilimi ajdodlarimiz aytganidek, "toshga bitilishi" bejiz emas ekan. Shu nuqtai nazardan kelib chiqqan holda xorijiy tillarni ham boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga erta yoshda o'rgatish til ko'nikma va malakalarining oson o'zlashtirilishiga sabab bo'lar ekan. Ayniqsa, ushbu bilim, ko'nikma va malakalar turli o'yin va ta'limiy faoliyatlar orqali singdirib borilsa, boshlang'ich sinf o'quvchilari xorijiy tillarni o'z ona tili kabi tabiiy tarzda rivojlantirib boradi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mamlakatimizda aholi o'rtasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirishga katta e'tibor qaratilgani bois maktab, litsey, kollej o'quvchilari va oliy ta'lim muassasalari talabalariga, balki boshlang'ich ta'limda ham chet tilini, xususan, ingliz tilini o'rgatish yo'lga qo'yilgan. Xorijlik olimlar tomonidan til o'rganishning yosh davrlariga bog'liq ravishda har bir bosqich uchun alohida maxsus mashg'ulotlar turlari ishlab chiqilgan. Psixologlarning fikricha [Vygotskiy, L.S., 1998, S. 51], boshlang'ich sinf o'quvchilari kattalarga nisbatan tilni tez va oson o'zlashtiradilar. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida til o'rganishga bo'lgan tabiiy moyillik, ularda taqlid qilish xususiyati kuchli ekanligi, kattalarga qaraganda boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida vaqtning ko'pligi buning asosiy sabablaridandir.

Shuni e'tiborga olish kerakki, boshlang'ich ta'lim o'quvchilari ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yod oladilar. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan emas, balki so'zlarni taqlid qilib o'rgatishdan boshlashimiz zarur. Aks holda chet tilini

o'rgatishning dastlabki qadamidanoq o'quvchilarni zo'riqtirib qo'yish va qiziqishini so'ndirib qo'yish mumkin. Shunday ekan, kichik yoshdagi boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va mas'uliyatli vazifa ekanligini his qilgan murabbiy-o'qituvchi o'z ustida tinmay izlanishlar olib borishi kerak.

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim muassasasi boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishning bir nechta samarali usullari taqdim qilindi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda tyutorlarning kasbiy salohiyatini rivojlantirishda malaka oshirish tizimini takomillashtirishning ilmiy-pedagogik asoslarini aniqlash maqsadida qiyosiy-komparativ tahlil, tizimli yondashuv, kontent tahlili hamda ilmiy manbalarni umumlashtirish metodlaridan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya, Yaponiya, Rossiya, Qozog'iston va O'zbekiston ta'lim tizimlarida tyutorlik faoliyatini tashkil etish, ularning kasbiy rivojlanish mexanizmlari hamda malaka oshirish tizimining o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilindi.

Shuningdek, xalqaro tashkilotlar va zamonaviy ilmiy manbalarda yoritilgan uzluksiz kasbiy rivojlanish (CPD), kompetensiyaviy yondashuv, raqamli pedagogika, reflektiv ta'lim hamda individual ta'lim trayektoriyalariga oid ilmiy qarashlar tizimli ravishda tahlil qilinib, ularning O'zbekiston oliy ta'lim tizimida tyutorlar malakasini oshirish jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari baholandi. Olingan natijalar mantiqiy tahlil va umumlashtirish asosida tizimlashtirilib, tyutorlar kasbiy salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan amaliy takliflar ishlab chiqildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish tavsiya qilinadi:

- qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, ma'noga ega bo'lmagan harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish. Bunga misol qilib, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin.
- aqliy va jismoniy harakatlar bilan bog'liq bo'lgan o'yinlar;
- multfilmlar; boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga til o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasa-da, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular nutqida ishlatayotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Masalan, Sing a Song (birgalikda qo'shiq kuylash).

O'quvchilarning eng yoqimli mashg'ulotlaridan biri birgalikda ashula aytishdir. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilari yoshlikdan qo'shiq kuylashga moyil bo'ladilar va qo'shiq kuylash vositasida o'quvchilar nafaqat so'z boyligini orttiradilar, shu bilan birga ular so'zlarni ohangga solib aytishni o'rganadilar. Kichik yoshdagi boshlang'ich ta'lim o'quvchilari orasida kuylanadigan inglizcha qo'shiqlarning eng ommabop turlaridan biri "Rain, Rain Go Away" qo'shig'idir.

*Rain, rain go away*
*Little Tommy wants to play*
*Come again another day*
*Rain, rain go to Spain*
*Never show your face again.*

Bu ta'limiy qo'shiqda har bir o'quvchi o'z ismini qo'yib aytishi maqsadga muvofiq. Shuningdek, ushbu o'yin soyabonlar, yasama bulut hamda sun'iy yomg'ir vositasida amalga oshirilsa, o'quvchilarning faolligi oshadi, natija samaradorligi ortadi. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining o'yindagi ishtirokini tahlil qilib borish, ta'limiy faoliyatda ularning faol qatnashishini ta'minlash, har bir o'quvchiga alohida e'tibor qaratish va ushbu mashg'ulotda biror narsa o'rganishi uchun rag'batlantirib borish lozim.

Mashg'ulotlarda yutuqqa erishayotgan o'quvchilarning faoliyati yoki bajargan ishi uchun maqtab qo'yish ham ulardagi rag'batni kuchaytiradi. Ammo psixologlarning fikricha, maqtov shaxsga nisbatan emas, balki qilingan ishga nisbatan qaratilishi kerak. Chunki agar maqtov shaxsga nisbatan berilsa, bu o'quvchilarni keyinchalik xudbinlikka yetaklab borishi mumkin ekan. Shaxsning bajargan ishiga qaratilgan maqtov keyinchalik ham har qanday ishning sifatli va tez bajarilishini ta'minlaydi [Avanesova V.N., 1999, S. 3-9].

Role play - rolli o'yinlar boshlang'ich ta'lim o'quvchilari uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali usullardan biridir. Bunda o'qituvchi biror ma'lumotni, masalan, hayvon yoki qushlarning nomlarini o'rgatayotgan

paytda rol orqali ijro etishi yoki boshqa o'quvchilarga ijro ettirishi lozim. Misol uchun, bir o'quvchi itning vovillashi yoki mushukning miyovlashini ko'rsatib bersa, boshqa bir o'quvchi bu tovushlar qaysi hayvonga tegishli ekanligini bilib, uning inglizcha nomini aytishi zarur.

- mavzuga oid muhit; O'qituvchi mavzusiga qarab o'sha muhitni yaratib bera olsa, boshlang'ich ta'lim o'quvchilari tilni yaxshi o'rganadilar. Masalan: traveling, birthday, in the kitchen va boshqalar. Traveling (sayohat) mavzusida o'qituvchi sayohat uyushtirishi, sayohatga qanday vositalar orqali (foot, bicycle, automobile, train, boat, airplane) borish mumkinligi, qayerlarga sayohat qilish (Tashkent, Samarkand, Bukhara, England, USA) muhimligi haqida ma'lumot beradi. Bu usul o'quvchilarning so'z boyligini, til imkoniyatlarini kuchaytiradi, dunyoqarashini o'stiradi.
- topishmoqlar; Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida topishmoqlarning javobini topishga qiziqish kuchli. Shuning uchun o'qituvchi topishmoqni ingliz yoki o'zbek tilida aytsa-da, uning javobini o'quvchilardan ingliz tilida aytishini talab qilishi lozim. Shunda boshlang'ich ta'lim o'quvchilari so'zlarni tez o'rganadilar.
- amaliy mashg'ulotlar (mevalar va boshqa oziq-ovqatlarni tatib ko'rish, gullarni hidlab ko'rish); Bu jumlani bir amaliyotchi psixologning fikrlari bilan izohlash mumkin: “Boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining esida biror narsaning mahkam o'rnashib qolishini xohlovchi pedagog o'quvchilar sezgi organlarining mumkin qadar ko'prog'ini: ko'zi, qulog'i, tovush organi, muskul sezgisi va, hatto, agar iloji bo'lsa, hidlash va ta'm bilish organlarini esda tutib qolish jarayonida qatnashtirishga harakat qilishi kerak” [Avanesova V.N., 1999, S. 3-9]. Masalan, o'qituvchi bir o'quvchining olmani tatib ko'rishi paytida uning rangi qizil (red) yoki yashil (green), ta'mi shirin (tasty) haqida ma'lumot berishi va boshqa o'quvchilarga ham mevalarni yedirib, ulardan o'sha meva haqida inglizcha ma'lumotlar berishini talab qilishi lozim. Bu usul o'quvchilarning keyingi o'rganishlarida ham yordam beradi. O'qituvchi o'quvchilardan ranglarning inglizcha nomini so'rab qolsa, o'quvchilar darrov meva yegan paytini eslaydi: qizil - red, yashil - green, sariq - yellow ekanligini tez esda saqlaydi. Demak, bunday usuldan foydalanish o'quvchining ma'lumotni uzoq muddat xotirasida saqlab qolishini ta'minlaydi.
- imo-ishoralar, yuz ifodalari orqali; O'qituvchi o'quvchilarga biror gapni gapirganda yoki buyruq berganda, masalan, bu yoqqa kel (come here), kitobni och (open the book), turing (stand up), doskaga qarang (look at the blackboard) kabi gaplarda imo-ishoralardan foydalansa, o'quvchilarga tushunarli bo'ladi.
- ko'rgazmali qurollar, plakatlar, kitoblar orqali; Ko'zga ko'rinadigan va kundalik hayotda ko'p ishlatiladigan narsa-buyumlarga yozish. Masalan: eshik (door), kitob (book), stol (table), doska (blackboard), oyna (window) va shu kabilarga yozish. Bunday narsa-buyumlar doimo ko'zga tushib turishi va amaliyotda ko'p qo'llanishi bois, o'quvchilar bu so'zlarni ixtiyorsiz tarzda o'rganadilar.
- angiliklar orqali; Bilamizki, boshlang'ich ta'lim o'quvchilari qiziquvchanligi bois ular bir xillikdan tez zerikadilar. Shuning uchun ularga har doim bir turdagi usullardan foydalanib dars o'tish emas, balki bunday usullarni o'zgartirib, yangilab dars o'tish lozim. Aks holda boshlang'ich ta'lim o'quvchilari o'qituvchining qanday dars o'tishini fahmlab oladilar va bunga tayyorgarlik ko'radilar. Usullarni yangilab dars o'tish boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining intilishlarini oshiradi.

Umuman olganda, kichik yoshdagi boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga til o'rgatish majburiyat sifatida emas, qiziqarli mashg'ulot tarzida olib borilishi, bir necha samarali usullardan foydalanib dars o'tish ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga chet tillarini o'rganish qanchalik muhimligini tabiiy sharoitlar orqali to'g'ri tushuntirib borish darkor.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o'rnida, boshlang'ich ta'lim o'quvchilarining maktabda qanday o'qishi, yuksak maqsadlar bilan kamol topishi ko'p jihatdan oila muhiti, mahalla e'tibori hamda ta'lim va tarbiyasiga bog'liq. Maqolada berilgan ilmiy kuzatishlar va tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inson umri davomida oladigan barcha axborotning 80 foizini 8 yoshgacha bo'lgan davrda olishi aynan o'quvchilar shaxsining rivojlanishida boshlang'ich ta'limning o'rni nechog'li muhimligidan dalolat beradi. Ta'limiy o'yinlar o'quvchilarda nafaqat bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantiradi, balki shu bilan birga o'quvchilarning jismonan sog'lom rivojlanishini ta'minlaydi, ruhan tetiklashtiradi, o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlaydi hamda atrofdagilar bilan ijtimoiy munosabatlarni shakllantirishga katta ko'mak beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**


1. V.N. Avanesova // Boshlang'ich yoshdagi boshlang'ich ta'lim o'quvchilar o'yinini boshqarishning psixologik muammolari / Komp. N.Ya. Mixaylenko va boshqalar. -M.: 1999. - S. 3-9.
2. Vygotskiy, L.S. Boshlang'ich ta'lim o'quvchilar psixologiyasi masalalari / L.S. Vygotskiy. - Sankt Peterburg: Soyuz, 1997.-220 b. 5.Ota-onalar bilan ishlashning valeologik jihatlari / EN Weiner. Lipetsk: LGPI, 1998.-51s.
3. Ruzmetova, D. (2026). Developing Students'potential Vocabulary in Foreign Language Reading. // Вопросы филологии (магистратура), 1(2/1), 55-61.
4. Ruzmetova, D., & Kuandikova, A. (2026). Enhancing Intercultural Communication Through Linguocultural Competence In Efl Classes.// Вопросы филологии (магистратура), 1(2/1), 132-138.
5. Adilbekovna, R. D. (2026). Enhancing Linguo-Cognitive Competence Through Problem-Based Learning in EFL Education. // BG pulse journal, 2(6), 62-65.
6. Adilbekovna, R. D. (2026). Fostering Vocabulary Expansion in Reading Activities in a Foreign Language. //O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti konferensiyalari, 664-668.
7. Maksudova, G. O., Ilkhamovaet, I., & Ruzmetova, D. A. (2022). Research of Modern Technologies of Education. Journal of Pharmaceutical Negative Results, 13, 2483-2485.
8. KASA - Программа профессионального развития для преподавателей иностранных языков в узбекистане.// (2026). Международный научный журнал "Alfraganus", 3(4), 67-72. https://doi.org/10.63294/isja/vol3iss4/175

| | |
|---|---|
| 13.00.00 | Pedagogika fanlari |
| 13.00.01 | Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta’limotlar tarixi |
| 13.00.02 | Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo‘yicha) |
| 13.00.03 | Maxsus pedagogika |
| 13.00.04 | Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.05 | Kasb-hunar ta’limi nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.06 | Elektron ta’lim nazariyasi va metodikasi (ta’lim sohalari va bosqichlari bo‘yicha) |
| 13.00.07 | Ta’limda menejment |
| 13.00.08 | Maktabgacha ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi |
| 13.00.09 | Ijtimoiy pedagogika |
| 07.00.00 | Tarix fanlari |
| 19.00.00 | Psixologiya fanlari |
| 01.00.00 | Fizika-matematika fanlari |
| 02.00.00 | Kimyo fanlari |
| 03.00.00 | Biologiya fanlari |
| 09.00.00 | Falsafa fanlari |
| 10.00.00 | Filologiya fanlari |
| 11.00.00 | Geografiya fanlari |

# MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2026. №7(1)**


© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№C–5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
**Litsenziya raqami: № 136361**.

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.